

“TA’VIZU-L-OSHIQIN” ASARIDA TASAVVUFIIY MAVHUM TUSHUNCHALARNI
IFODALOVCHI AYRIM SO‘ZLAR

Jumaboyeva Rahima

Urgach davlat universiteti

Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada “Ta’vizu-l-oshiqin” asaridagi tasavvufiy tushunchalarni ifodalovchi mavhum otlar hamda ushbu otlarning baytlarda qo‘llanishi va shu baytlar tahlil qilingan. Tasavvuf istilohlari hisoblanmish ayrim mavhum otlar izohlangan.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, nafs, muhabbat, shavq, zuhd, taqvo, tavakkul, faqr, sabr, xavf.

Muhammad Rizo Ogahiy g‘azallarida ishqni kuylagani barchamizga ma’lum. Shu o‘rinda shoir tasavvufiy tushunchalarni ifodalovchi mavhum otlardan ham o‘z o‘rnida unumli va samarali foydalangan. Bu orqali uning tasavvufiy e’tiqodini bilib olamiz va go‘zal she‘rlarini o‘qish orqali uning iste’dodiga qoyil qolamiz. Ogahiyning ko‘p g‘azallari “Ta’vizu-l-oshiqin” devonida jamlangan bo‘lib, ushbu devondagi tasavvufiy mavhum tushunchalarni ifodalovchi so‘zlarning ayrimlarini ko‘rib chiqamiz.

Bilamizki, tasavvuf ta’limotida nafs, uni yengish, unga qarshi kurashish turadi. **Nafs**-milliy ma’naviyatimiz an’analariga binoan inson ruhiyatiga moddiy olam ne’matlariga moyillikni ifodalovchi timsol bo‘lib, tasavvuf tariqatlarida nafs tarbiyasiga alohida ahamiyat qaratilgan va uning turli darajlari belgilangan. Ogahiy ham g‘azallarida nafs timsolidan unumli foydalangan.

Jonni ishqing domiga band aylabon ozod qil,

Kim, havo zanjirini nafs aylamish muhkam ango.

No‘sh etib jomi haqiqat, doim o‘lgil toza ruh,

Ham safoli nafs o‘lurg‘a bo‘lmasun rag‘bat sanga.

Tasavvuf maqomlari orasida **muhabbat** tushunchasi alohida ahamiyatga molik bo‘lib, bu maqom qalbdan kuchli tug‘yonning ko‘tarilishi, betoqat va bezovta bo‘lib, barcha go‘zalliklar manbai, ne’mat-u rohat egasi Alloh tomon talpinishdir.

Ochilg‘usi badanim bog‘ida guli rohat,

Muhabbating o‘tidin gar yetushsa dog‘ manga.

Ya’ni agar ma’shuqaning muhabbati o‘tidan kichik bir zarra yorga yetsa,

uning badani bog'ida rohat gullari ochilishini aytmoqda. Aynan shu misralar orqali Allohning muhabbati shoirga qay darajada taskin berishini bayon qilmoqda.

Shavq-muhabbatning zo'rayishi.

Chu tutti soqiyi ishqing to'la ayog' manga,

Sharobi shavqing ila garm erur dimog' manga.

Ne tong ko'nglum qushi gar yetsa maqsad oshyonig'a-

Ki, sa'yu shavqdin uchmoqda bolu par qilur paydo.

Zihi jonlarga vasling shavqidin ayshu tarab paydo

Gahi dardu firoqing xavfidin ranju ta'b paydo.

Faqr – ma'nosi qashshoqlik, benavollik. So'fiylar nazdida ilohiy ulug'vorlik kasb etib, Allohga bandalikni sidqidildan bajo keltirish, bandalikdan sharaf topish, manmanlik-u mansabparastlikdan uzoqda bo'lish, hayotda tuproq kabi nom-u nishonsiz yashash, Ilohning nazdida o'zini xuddi zarradek, balki undan ham kam deb bilish. Va shu martabada komillik darajasini qozonish ham. Barcha narsalarning yaratuvchisi Alloh ekanini, insonning vujudi ham yaratganga tegishli ekanini anglab o'zini kamtar tutish faqrlikdir.

Bo'lgan duosi maqbul arbob faqr haqqi

Qil Ogahiy duosin maqbul kirdi koro.

Tasavvuf ta'limotidan ma'lumki, faqrlik ilohiy ulug'vorlik bo'lib, faqrlikni kasb etganlar Allohning eng suyuqli bandalari qatorida bo'ladi. Ularning so'ragan duolari ham juda ko'p hollarda ijobat bo'ladi. Ogahiy ham ushbu baytda Allohdan faqrning duosini ijobat qilgan kabi uning ham duolarini ijobat qilishini so'ramoqda.

Koni' aylabon ganju faqr aro aziz etkil,

Kim, mani zalil usru aylamish havas, yo Rab.

Sabr – toqat, chidamlilik. So'fiylar nazdida taqdiriga yozilgan qiyinchiliklardan, azob-uqubatlardan shikoyat qilmaslik, Allohga shukur qilish va faqat Ungagina ibodat etib, Undan so'rash. Sabr qiyinchiliklar kelgan paytda ham Allohga tavakkal qilib, barchasi yaxshi bo'lishini umid bilan kutishdir. Tasavvuf ta'limotida "Sabr-iymonning yarmi" deydilar, chunki asosiy dushman hisoblanmish nas sabr orqali yengiladi.

Sabrni qilding shioring emdi ermastur ajab,

Ayshu ishratg'a badal bo'lsa g'amu kulfat sanga.

Ya'ni baytda shoir sabrni shior qilgani va endi hech ajablanmasligini, vaqtida qilgan aysh-u ishratlari uchun g'am-kulfat bilan badal to'layotganini aytmoqda.

Dedim: Beling quchmoq bila sabr etmasa ko'nglum netay.

Dedi: Tilim shahdini so'r, ko'ksingda jismim ag'natib.

Xavf – qalbning ishonchdan, iymondan chiqishi, ikkilanish, gumonsirash. Vaqtinchalik shayton nayrangi ham ko'ngilga xavf solidi. Vaholanki, iymoni kuchli bo'lgan solikda yoki insonda xavf bo'lmasligi kerak.

*Jahon bir xavflig' manzildur usru,
Xiradmand ersang onda bo'lma noqis.*

Ushbu baytda shoir jahon juda ham ko'p xavflarga boy manzildir, agar sen aqlli bo'lsang unda nuqsonli bo'lib qolma, ya'ni xavfsirab ko'p gunoh ishlarni qilib qo'yma deya tanbeh bermoqda.

Tavakkul – barcha ishlarni, yaxshi-yu yomon hodisalarni Allohdan deb bilish, qalban va ruhan Allohga suyanish, Unga tavakkal qilib yashash. Imom Moturidiy tavakkulning asl mohiyatini shunday ta'riflaydi: "Mo'minlar barcha ishlarida faqat Allohga ishonadilar va Ungagina suyanadilar. Agar mo'minga biror yaxshilik yetsa, uni Allohdan deb biladi. Mo'min shuni aniq biladiki, Alloh kimga yordam bersa uni hech kim yenga olmaydi. Alloh kimni mag'lub etsa, hech kim unga yordam bera olmaydi. Shuning uchun ham mo'min Allohga tavakkal qiladi, ya'ni Allohning va'dalariga ishonib, Unga suyanadi va ahdiga vafo qilishga qattiq harakat qiladi. Barcha ishlarni Allohga topshiradi. Chunki biladiki, o'zining butun borlig'i Allohnik va Ungagina qaytadi".⁹ Ogahiy ijodida ham tavakkul yuksak e'tirof etilganini ko'rishimiz mumkin:

*Tangriga aylab tavakkul, qil qanoatni shior,
Ikki olamda kerak bo'lsa agar izzat sanga.*

Ya'ni shoir: agar sen ikki dunyoda ham izzat-ikromga, saodatga erishmoqchi bo'lsang, Allohga tavakkul qilib, har bir ishning Undan ekaniga ishonib, qanoatni shior qil demoqchi. Boshqa baytda esa biror bir narsa uchun eldan minnat qilib o'tirma, bu ish ustida bir necha og'ir yuk bor hammolga o'xshaydi, yaxshisi sen Allohga tavakkul qil deydi:

*Qil tavakkul Haqq'a eldin chekmag'il minnatki, ul
Bir og'ir yukdirki o'lmish necha hammol ostida.*

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Ogahiy tasavvufiy atamalarni o'z o'rnida ifodali va chiroyli o'xshatishlar asosida qo'llay olgan. Bu mavhum tushunchalarni insonlarga soddaroq tushuntirishga va ularning odamlar hayotidagi o'rnini ko'rsatishga harakat qilgan.

⁹ <https://uz.tgstat.com/channel/@alquranuz/1346>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhammad Rizo Ogahiy “Ta’vizu-l-oshiqin” devon, -T: “Mumtoz so’z”, 2014.
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug’ati. –T: “Fan”, 1983.
3. Najmiddin Komilov “Tasavvuf”, -T: “Movarounnahr”, 2009.
4. Atoqli shoir, tarixnavis va tarjimon. –T: “O‘zbekiston”, 1999.